

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSELIK UNIVERSITETI



XORIJIV SHARQ TILI (YAPON TILI)

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200 000	– San'at va gumanitar fanla
Ta'lif sohasi:	230 000	– Tillar
	220 000	– Gumanitar fanlar
Mutaxassislik:	60230100	– Filologiya va tillarni o'qitish (sharq tillari bo'yicha)

Fan/modul kodi XShT11-874 (Fil)	O'quv yili 2024/2025 2025/2026 2026/2027 2027/2028	Semestr 1,2,3,4,5,6,7,8	ECTS - Kreditlar 10,10,10,10,10,10,10,8,6
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 10,10,10,10,10,10,8,6
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Xorijiy sharq tili	888	1332	2220

1. Fanning mazmuni:

Fanning maqsadi: oliy ta'lim muassasalari talabalariga yapon tilini ilk bosqichdan boshlab o'rgatish, klassik va zamonaviy yapon tilidan chuqur bilimlar berish asosida B2-C1 darajasida amaliyotda tadbiq etish ko'nikmasini hosil qilish hamda oliy ta'lim muassasalari (magistratura) va oliy ta'lindan keyingi bosqichga maqsadli tayorlashdan iborat bo'lib, o'qitish soddadan murakkabga tamoyiliga asoslanadi. Shuningdek, yapon tilining nazariy va amaliy asoslari haqida atroficha bilim berish, ularda yapon tilida erkin va mustaqil mushohada yuritish, egallagan bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llash malakasini shakllantirish, soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot olib borish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. To'rt yilga mo'ljallangan dastur mobaynidagi talabalar yapon tiliga oid asosiy ma'lumotlarni bilib olish bilan birga, tilning uslublari, tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid ko'nikmalarga ham ega bo'lislari e'tiborga olinadi. Ushbu kompetensiyalarni takomillashtirishda talabalar "Ibrat farzandlari" online platforma hamda maxsus videomahsulotlardan foydalangan holda o'z bilimlarini mustahkamlaydilar.

Fanning vazifasi:

- nutq amaliyoti talabalarning mantiqiy tafakkurini, xorijiy tilidagi nutqiy qobiliyatini, xotirlash turlari, fikrlari, umumnutqiy va umumta'limiy yo'riqlarni, til bo'yicha mustaqil ishlash malakalarini rivojlantiradi.
- yapon tili darslarida turli nutqiy vaziyatlarga taalluqli bo'lgan autentik kasbiy-yo'naltirilgan fikrlarning asosiy mazmuni bir marotaba eshitishda to'liq tushunish va zaruriyat tug'ilganda undan aniq ma'lumotni ajratish;
- ro'y berayotgan voqeа-hodisalar haqidagi yangiliklar va reportajlarni tushunish,
- shuningdek, ko'pgina filmlarni, agar ularning qahramonlari adabiy tilda gapirayotgan bo'lsa, mazmunini tushunish, kasbiy-yo'naltirilgan kommunikativ vaziyatlarga taalluqli erkin va standart dialoglarda ishtirot etish,
- o'z ona tili va yapon tilida o'qilgan yoki tinglangan ko'pgina autentik fikrlar

(diskurs) asosida tilga oid, nutqiy va mazmuniy tayanchlardan foydalangan holda kasbga yo'naltirilgan ma'lumotlarni ifodalash uchun monologlarning barcha turlarini tuzish,

- ta'liming ushbu bosqichida nutqning fan mazmuni asosidagi fanlararo aloqalardan foydalanishni nazarda tutadi.

2. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

(O'quv rejada nazariy soatlар ko'zda tutilmagan)

Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Xorijiy sharq tili fani bo'yicha amaliy amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

"Xorijiy sharq tili (yapon tili)" fanidan darslar amaliy mashg'ulot shaklida tashkil etiladi.

(Ibrat farzandlari platformasida berilgan darslar semestr mavzulariga mos ravishda joriylantiriladi)

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar dars jarayonida oлган bilim va ko'nikmalarini amaliy topshiriqlar, mashqlar, grammatik masalalarni keyslar va organazerlar orqali bajarish natijasida yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rgazmali qurollar tayyorlash, foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi.

Xorijiy sharq tili fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

A1 BOSHLANG'ICH DARAJA

1-mavzu. Hiragana alifbosi

Kirish. 1-bosqichda o'qitiladigan dars mazmuni bilan tanishish. O'quv yili maqsadi. Salomlashish va minnatdorchilikka oid iboralar. Hiragana alifbosi. Bosh kelishik. Son. Yoshini ayta olish.

2-mavzu. Katakana alifbosi

Nisbiy-ko'rsatish olmoshlari. Nisbiy-ko'rsatish olmoshlardan foydalanib maxsus so'roq gap tuzish. Ko'rsatish olmoshi. Qaratqich kelishigi.

3-mavzu. Joy olmoshlari

Jonli va jonsiz predmetlarning holatini fe'lining darak, inkor va so'roq gaplarda kelishi. Joy olmoshlarni darak, inkor va so'roq gaplarda qo'llanilishi. "bilan" bog'lovchisining ko'plik miqdor bilan kelganda qo'llanilishi.

4-mavzu. Guman olmoshi

Bo'lishsiz olmoshining gapda bog'lanishi. Dialog orqali grammatika bo'yicha og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish. Yapon iyeroglifikasiga kirish. Hurmatni ifodalovchi fe'lning shaklini o'rganish, I va II shaxslarga nisbatan qo'llanilishi. Egaga maxsus so'roq gap yasash. Ikki va undan ortiq ot-kesimli gaplarning o'zaro bir gapda kelishi.

5-mavzu. Maxsus so'roq gap

Hayvonot olami bilan tanishish va maxsus so'roq yasash. Holat fe'llarini o'rganish. Telefon raqam, xona raqamlari, transport raqamlari kabilar. Shakli noaniq predmetlarni sanash suffiksni.

6-mavzu. Sanoq suffikslari

Odamlar uchun, tekis-yupqa narsalar uchun, texnikalar uchun, mayda narsalar uchun sanaladigan sanoq suffikslarga oid mashqlar. Ravish. Ko'plik shakli.

7-mavzu. Buyruq-iltimos gaplar

Sanoq suffikslari, katta sonlar, telefon raqamlari bo'yicha takrorlash. Predikativ va yarim predikativ sifatlar. Sifat. Buyruq-iltimos gaplarni yasash. Harakat fe'llari bilan keladigan va joyni ifodalaydigan kelishik qo'shimchasi.

8-mavzu. Taqvim

Vaqtni ifodalaydigan so'zlar. Taqvimi o'rganish. Qisqacha biografiyaning tavsifi, rezyume. Vagt oralig'i.

9-mavzu. Fe'l so'z turkumi

Harakat yo'nalishi fe'llari. Muayyan yo'lning boshi va oxirini, masofani, vaqt oralig'ini bildiruvchi boshlang'ich va chegara holatlari.

10-mavzu. Zamon

Fe'l turkumi. Zamon, kelishik. Insho yozish. Bog'lovchi orqali sifatlarni moslashtirish.

11-mavzu. Vaqt birliklari

Vaqt birliklari (soat, daqqa, soniya)ni gaplarda qo'llash. Vaqt, joy oralig'i.

12-mavzu. Bog'lovchilar

Gaplarda "tabun, desho:"ning qo'llanishi. "to onaji" bilan "ot chigaimas" ning bir-biridan farqi.

13-mavzu. Maqsad mayli

Muloqot. Maqsadni ifodalovchi "shini ikimas"ni qo'llash.

14-mavzu. Fe'llarni guruhlash

Fe'lning te kei" va ta kei shaklining yasalishi. Fe'llarni guruhlarga ajratish. Buyruq mayli (iltimos, buyruq) "te kudasai" va "naide kudasai"ni qo'llash.

15-mavzu. Vaziyatli gaplar

Biror joydan biror joygacha bo'lgan "kara" va "made" vaziyatli gaplarni yasashni o'rganish.

1-mavzu. Onomatopoetik so'zlar

To'g'ridan-to'g'ri nutqni uzatish. Onomatopoetik so'zlar bilan tanishish. Ot bilan ifodalangan obyekt nomiga e'tibor qaratishni tushuntirish. Holat fe'lining davomli shakli, bo'lishli va bo'lishsiz shakli.

2-mavzu. Jarayon fe'llari

Ierogliflarni o'rganishning turli usullarini tuzish va taqdim etish. Tabiat hodisalari bilan bog'liq bo'lgan jarayoni jarayon fe'llari hisoblanuvchi "te imas" orqali o'rganish. Taklif qilish. Taklifni qabul qilish. Hurmat bilan rad qilish. Tabiat hodisalari bilan bog'liq bo'lgan tegishli jarayonni o'rganish.

3-mavzu. O'timli va o'timsiz fe'llar

Kiyim-kechak bilan bog'liq fe'llar. Jarayon fe'llari tabiat hodisalari bilan bog'liq bo'lgan tegishli jarayonni qaytarish. Ierogliflarni qaytarish. O'timli va O'timsiz fe'llar. O'timli fe'lning natija ifodasi.

4-mavzu. Ot so'z turkumiga oid his-tuyg'u

Niyatni ifodalash. Xohish fe'llarini I, II, III shaxsda qo'llash.

5-mavzu. Shart-maqsad bog'lovchisi

Predikativ va yarim predikativ sifatlar bilan maxsus vizual ma'lumotlarga asoslangan tahmin qilish. Harakat tugallanganligi ma'nosida harakat fe'llarining tugallangan shakli va hissiy ekspressivlik, holatning qaytarilmasligi uchun qo'llaniladigan tugagallangan shakli. Biror bir harakat me'yordidan ortiq bajarilganini ifodalash.

6-mavzu. Tahmin qilish

Tahmin qilish, aniq visual ma'lumotlarga asoslangan sifatlarni ishlatalishi. Turli manbalardan olingan ma'lumotlarni 2-kishiga yetkazish. Vizual ma'lumotlarga asoslangan va turli manbalardan olingan konstruksiyalarni takrorlash. Ierogliflarni o'rganish. Xohish-istik mayli.

7-mavzu. Xohish-istik mayli

Xohish-istik maylini qaytarish. Ierogliflarni qaytarish. Qobiliyatni ifodalash. Bir vaqtning o'zida ikki harakatni bajarish. Biror kishi biror harakatni qila oladigan bo'lganini ayta olishni o'rganish.

8-mavzu. Tashqi qiyofani ifodalash

Ierogliflarni o'rganish. Shaxsning tashqi qiyofasi va sifatlarining tavsifi. Obyekt tashqi xususiyatini funksiyali so'zlar yordamida baholash.

9-mavzu. Qo'shma gaplar

Qo'shma gaplar orqali sifatlarning qiyosiy yasalishi. Bir paytlar biror narsa qilishda tajribamiz borligini aytishni o'rganamiz. Taqoslash ifodalarini takrorlash. Ierogliflarni o'rganish. Harakat fe'llari va ularning semantikasi.

10-mavzu. Harakat fe'llari

Harakat fe'llari yordamida uydan universitetgacha bo'lgan qatnov rejasini tuzish. Haqiqiy-konsessiv munosabatni aks etiruvchi fe'l va predikativ sifatlarning hozirgi-kelasi zamonda ishlatalishi. "-kara" bilan "te"ning o'zaro farqli jhatlari. "do:shite/naze" so'roq gaplarning og'zaki nutqda ishlatalishi.

11-mavzu. Eshitgan ma'lumotga asoslanish

Shaxsning sezgi shaklini tahmin qilish, so'zlovchining ilgari ko'rgan, eshitganiga asoslanib tahminni o'rGANISH. Eshitgan ma'lumotlarga asoslangan tahmin konstruksiysi.

12-mavzu. Fikr bildirish

Biror narsaga yoki kimgadir juda o'xshash, lekin aslida bunday emasligini bildiruvchi konstruksiya. Fikr bildirish, so'zlovchining yumshatilgan shaklda maslahat berishni o'rGANISH. Ierogliflarni o'rGANISH. Fe'llar yordamida I, II shaxsga harakat yo'nalishini ifodalash. Harakat yo'nalishi fe'llari.

13-mavzu. Buyruq mayli

Buyruq mayli. Fe'llarning orttirma nisbati. Fe'lning sabab shakli.

14-mavzu. Majhul nisbat

Majhul gaplarning qo'llanishi. Harakatni boshlanib, hali tugamaganini ifodalaydigan konstruksiyalar. Ierogliflarni o'rGANISH. Nisbat ergash gap yasash. Shart mayli.

15-mavzu. Xushmuomalalik shakli

Xushmuomalalik shakli. Kamtarona shakli. Maxsus xushmuomalalik shakli. Muloyim shaklini takrorlash va rolli vaziyatlarni tuzish.

B1 BOSHLANG'ICH O'RTA DARAJA

1-mavzu. Ism, turlarga bo'lish va aniqlik kiritish

Obyektlar va so'zlarni aniqlash. Kitoblar, jurnallar haqida ma'lumot berish. Muloqot qurish. Qisqartmalar. Yaponiya tarixi va davrlari bilan tanishish. Nutq va gap usulublari. Hisobotga tayyorgarlik.

2-mavzu. Mavjudlik va predmetning joylashgan o'rni

Telefonda joyni aniqlashtirish, joylashuv qo'shimchalarini, yo'nalish fe'llari grammatisidan foydalanish. Yaponiyadagi tarixiy shaharlarning joylashuvini.

3-mavzu. Mavjudlik va son

Miqdor sonlar. Yapon taomlari retseptlari bilan tanishish. O'zbekiston va Yaponianing qiyosiy tavisi. Qiyosiy tahlilda raqamlardan foydalana olish va statistik ma'lumotlar. Suhbatdosh bilan qadimgi sivilizatsiya haqida ma'lumot almashish imkoniyatiga ega bo'lish.

4-mavzu. Joydan joyga ko'chish

Toshkent shahri bo'ylab ekskursiya rejasini muhokama qilish va tuzish. Yaponiya bo'ylab sayohat rejasini muhokama qilish, hududlar bo'yicha videoni tomosha qilish. Yaponiyada yetkazib berish tizimi bilan tanishish.

5-mavzu.O'zgarish

Harakat fe'llari yordamida grafik, jadvallardagi o'zgarishlarni tushuntirish. Bir harakatning darajasi oshishi bilan boshqa harakatning darajasini oshirish ifodasi.

7-mavzu. Vaqtga doir iboralar

Vaqt iboralari va qo'shimcha bilan tanishish. Vaqt oralig'ini aniqlash ko'nikmalarini shakllantirish.

8-mavzu. Talab, iltimos va buyruq

Iltimos qilish iboralari. Talab va buyruq iboralari. Do'stga neytral-oddiy shaklda iltimos qilish. Rolli o'yinlarni tuzish.

9-mavzu. Xohish

Iroda ifodalari, birinchi shaxsning xohish-istiklari. 3-shaxsning iroda, xohish-istiklak ifodalari.

10-mavzu. Istak

O'zining va boshqa shaxsning xohish-istiklari. III shaxsning iroda, xohish-istiklak ifodalari.

11-mavzu. Tavsiya va taklif

Tavsiya va taklif iboralari. Yordamni qabul qilish va rad etishni ifodalash usullari.

12-mavzu. Sinonim, o'xshash va metafora

Sinonim, o'xshatish va metafora haqida ma'lumot. Yapon maqollari bilan tanishuv. Onomatopoetik so'zlar.

13-mavzu. Taqqoslash

Yapon tilida taqqoslash ifodalari haqida ma'lumot.

14-mavzu. Daraja

Daraja so'zleri va darajalarning grammatik ifodalari. Daraja yoki o'ichovning qurilishi.

15-mavzu. Qarama-qarshi qo'yish.

Tegishli iboralar yordamida inson va texnologiyani solishtirish, yonma-yon joy lashtirish. Ikki narsani qarama-qarshi qo'yib taqqoslash.

B2 YUQORI O'RTA DARAJA

1-mavzu. Ma'lumot yetkazish

3-kurs maqsad va vazifalari. Talabalar o'zlashtirish darajasini aniqlash. Qarama garshi mavzularni solishtiramiz. Ishonch va obyektiv iboralarni ishlatish. Ma'lumot kiritish. Panda haqidagi matn. Eshitan malumotlarga tayanib vangilikni to'g'ri yetkazish. Nat yozish uslubi. Matnidagi ishonch va ob'yekti vangilikni to'g'ri yetkazish. Matnidagi ishonch va ob'yekti vangilikni to'g'ri yetkazish. Iqtibos keltirish. Kalit iboralarni ishlatish. E'lon doskasidagi malumotni yetkazish. Iqtibos keltirish. Kalit so'zlar orqali tadqiqot qilish. O'zlashtirma gaplar. Ma'ruba yozish qoidasi. Qiziqarli yangiliklar ma'tuzasi.

2-mavzu. Tasavvur. His qilish. Mo'ljal

Jamiyatdagi muammolarni tasavvur qilish. "O'xshash odamlar" matni tahlili. Ittimosni rad etish. Rolli dialoglar. Jamiyatdagi muammolarni tasavvur qilish. 10 yildan keyingi O'zbekiston. Yaponiya Ministrlar Kengashi. Ochiq dars: "Parlament muzokarasi". Matnni tasavvur qilish orqali o'qish. Matn: "O'xshash odamlar. "10 yildan so'ng men" mavzusida ma'ruba.

3-mavzu. Taxminning amalga oshishi va amalga oshmasligi

Taxminning amalga oshishi. Taxminning amalga oshmasligi. Tadqiqot qilish maqsadi va usullari. Taxmin grammatisiga oid iboralar bo'yicha mustahkamlash mashqlari. Doklad strukturasini o'rganamiz. Gipoteza va aniqlik kiritish. Tadqiqot strukturası. Tadqiqot ishining maqsad va vazifalarini aniqlashtirib, taxminiy ish rejasini tuzish.

4-mavzu. Sabab. Bahona

Sabab grammatisiga oid mashqlar. Bahona. Sabab va bahonani keltirish paytida qo'llaniluvchi grammatic konstruksiyalar va ularning farqlari. Sabab va bahonani keltirish paytida qo'llaniluvchi grammatic konstruksiyalarga oid eshitish mashqlari. Sabab va bahona grammatic konstruksiyalarini qo'llab muloqotga kiritish. Yangiliklarni o'qish. Yangilik matnni yozish. Yaponiyada savdo-sotiq haqidagi matn. Ma'ruba yozish.

5-mavzu. Sabab. Bahona. (Davomi)

Epizod. Yangiliklar matnlarni o'qish va do'stiga yetkazish. "Suhandon bo'lamiz" Yangilik tayyorlash. Yangilik matnni ravon talaffuz orqali ifodali yetkazish. Mant asosida debat qilish. Mashhur shaxs epizodi haqida ma'ruba tayyorlash. Epizodni tanishtirish.

6-mavzu. Nutq so'zlaylik.

Nutq so'zlaymiz. Nutq tarkibi. Nutq yozish qoidalari. Original nutq yozish. Nutq yozish strukturası. Nutqni omma oldida ifodali yodlab berish. Nutq qilish paytidagi talaffuz va intonatsiya. Notiqlik san'ati konkursiga tayyorgarlik. Nutq so'zlashni mashq qilish.

7-mavzu. Zidlash. Zid fikr.

Zid fikr. Fikrlashga oid mashqlar. Eshitish mashqlari. Tanlagan mavzu bo'yicha ish rejasini tuzish. Ma'ruba modeli. O'zbek va yaponlarning uyali IT texnologiyalardan foydalaniishini taqqoslash. Gazeta maqolalarini o'qish mashqi. Kartochkalar bo'yicha o'yinlar. Hayku o'yini. Ieroglif kalit qismlari bo'yicha tushuntirish.

8-mavzu. Ilmiy tadqiqot yozamiz

Ilmiy tadqiqot mavzusini tanlash. Tadqiqotga manba yig'ish. Reja tuzish. Ma'ruba modeli. Tadqiqot ishining tuzilishi. Kirish qismi. Asosiy qism. Xulosa qilish. O'zlashtirma gap va adabiyotlar ro'yxatini yozish qoidalari. Yig'ilgan malumotlardan xulosa chiqarish. Muammolar, misollar, fikrlar. Smartfonga bog'lanib qolish. Maqola o'qish. Gazeta maqolalarini diqqat qilib o'qish. Munozara jarayonida ishlatiladigan iboralar. Jamiyatdagi muammolar mavzusida doklad qilish.

9-mavzu. Muammoni talqin qilish

Jamiyatdagi muammolarni aniqlash. Muammolarga mos yechim keltirish. Muammo haqida do'stiga yetkazish. Muammoning bugungi kundagi dolzarbligi. Muammoni yechish yo'llari haqida taklif kiritish. Jamiyatdagi muayyan muammoni chuqr o'rganish va ilmiy tahlil orqali yozish. Muayyan muammo yuzasida doklad qilish. Auditoriyada o'z mavzusi bo'yicha doklad qilish.

10-mavzu. Original mavzular xususida

Mavzu tanlash qoidalari. Ilmiy uslubni o'rganamiz. Kurs ishi yozamiz. Fakt va muallif fikrini ajratish. Ma'lumot olingen manbagaga havola berish. Havola berish qoidalari. Faktlar asosida o'z fikrini asoslash. So'zlashuv uslubi va ilmiy uslubning farqlari. Maqsad va vazifalarini belgilash. Metod tanlash. Kurs ishi strukturasini shakllantirish. Kirish, asosiy qism va xulosalarni yozish.

11-mavzu. Muallifning ta'kidlamoqchi bo'lgan fikri

Ma'ruba qilish qoidalari. Qisqartma so'zlar amaliyoti. Guruh bo'lib doklad qilish. So'zlovchining fikrini bildiruvchi iboralar. Muallif fikri va faktini ajratish. Gap so'ngida qo'llaniluvchi iboralar. O'qish strategiyasi.

12-mavzu. Yapon milliy sporti - Sumo

Yapon miliy sporti -Sumo haqida maqola qilish. "Shiko funjyata" filmi. "Shiko funjyata" filmidagi iboralar. Film haqida taassurot yozish. "Kujira ot nihonjin". So'zlar va iboralar, tegishli grammatic birliklar bilan tanishib chiqish.

13-mavzu. "Bunka ot henken" matnnini o'qish

"Hone ot temae" matnnini o'qish. Suhbatdosh fikriga nisbatan o'z fikrini bildirish. Ierogliflar borasida tez va samarali yodlash usullari bilan tanishtirish. Samarali usullar borasida. "Ieroglifni yodlash usuli" ilmiy ish o'qish. Kalit so'zlar, maqsad, vazifalar, kirish, asosiy qism, xulosa qismlariga ajratish.

14-mavzu. O'qish strategiyasi

B2 va undan yuqori daraja uchun belgilangan matnlarni o'qitish strategiyasi. Sut emizuvchilar haqidagi matn. Qisqa, o'rtacha uzunlikdagi va uzun matnlarni o'qish strategiyasi. Matnda ko'rsatish olmoshlari ma'nosi. Tayanch ibora mazmunini ilg'ash. Sabab va oqibat.

1-mavzu. Ma'lumot yetkazish

Kursning maqsadi va vazifalari. Ish jarayonini aniqlab olish. BMI ning mavzusini aniqlashtirish, uning maqsad va vazifalari.

2-mavzu. Natsume Soseki hayoti va ijodi

Natsume Soseki hayoti haqida ma'lumot, yozgan asarlarning tahlili.

3-mavzu. Natsume Sosekining "Bolakay" filmi

Natsume Sosekining "Bolakay" filmda uchratilgan grammatick iboralarning tahlili, ot va fe'l turlari. "Bolakay" asarini o'qib, tahlil qilish. Asarning mazmun-mohiyati tushunib yetish.

4-mavzu. Honda Souichiro hayoti va ijodi

Honda Souichironing hayoti haqida ma'lumot izlash. Honda video filmini tarixi haqida ma'lumot.

5-mavzu. Yapon filmi "Kichik DJ" uning tahlili

Yapon filmi tarixi haqida ma'lumot. "Kichik DJ" filmning tarixi haqida ma'lumot.

6-mavzu. Yangi ibora va grammaticalarni o'rganish

Grammatick ibora haqida ma'lumot.

7-mavzu. Honda Souichiro hayoti va ijodi haqida video film (film davomji)

Honda Souichiro hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

8-mavzu. Lingvistikaga oid maqolalarni o'qish

Maqola o'qish texnikasi haqida ma'lumot.

9-mavzu. Tarixga oid maqolalarni o'qish

Heian davrining ilk tarixiy yodgorlikarni o'qish usullari haqida ma'lumot

10-mavzu. Adabiyotga oid maqolalarni o'qish

Yaponiyaning zamonaviy yozuvchisi Yoshimoto Banananig asarini o'qib, grammatick iboralarini tahlil qilish usullari haqida ma'lumot

11-mavzu. Madaniyatga oid maqolalarni o'qish

Yaponiyaning Ocha no ba madaniyatga oid maqollarni tahlil qilish haqida ma'lumot

12-mavzu. Yapon tilida TV/Radio yangiliklарини tinglash texnikasi

NHK news degan telekanalining yangiliklarni tinglash texnikasi haqida ma'lumot.

13-mavzu. Yangiliklarni o'zlashtira olish, boshqalarga yangiliklarni

yetkazib bera olish

NHK news degan telekanalining ijtimoiy yangiliklarni yetkazish jarayonida qo'llanadigan grammatick iboralar.

14-mavzu. Intervyu olish texnikasi

Intervyu olish madaniyatni, iboralarini o'rganish haqida malumot.

15-mavzu. Yapon tilida xat yozish qoidalari

Yapon tilida xat yozish qoidalari Yapon tilida xat yozish qoidalari haqida ma'lumot.

16-mavzu. Telefonda suhbatlashish qoidalari

Yapon tilida telefon suhbatlari turlari. Telefonda suhbatlashganda qo'llaniladigan grammatick iboralar haqida ma'lumot.

17-mavzu. Maqola o'qish texnikasi

Maqola turlari. Ilmiy maqola haqida ma'lumot. Maqola o'qish texnikalarni turlari haqida ma'lumot.

18-mavzu. Insho yozish texnikasi

Yapon tilida insho yozish jarayoni, grammatick jihatdan ishlataladigan ibora bilan tanishtirish.

19-mavzu. Yapon tilida fikriga ishontira olishni o'rganish

Yapon tilida fikrlarni ifodalash usullari va turlari haqida ma'lumot berish. Ijtimoiy mavzularga suhbat qilish.

20-mavzu. Faktlarga asoslanib o'z. fikrini aytta olish

Inson hayotidan olingan voqeanning faktlarga asoslanib o'z fikrini bildirish usullari haqida ma'lumot

21-mavzu. Yaponiyada mavjud muammolar

Hozirgi Yaponiyada 過労死、高齢化社会 muammolar haqida izlab, o'z fikrini erkin aytish haqida suhbat qurish

22-mavzu. Yaponiya va O'zbekiston ta'lim tizimi

Ikkita davlatning ta'lim sistema haqida ma'lumot izlab, faktlar bilan suhbat qilish

23-mavzu. Yaponiya madhiyasini yod olish

Yaponiyaning davlat madhiyasini matning mazmuni, so'zlari haqida ma'lumot

24-mavzu. Maqola o'qish texnikasi

Maqolaning turlari, yozish usullari, o'qish jarayonida uchraydigan grammatick iboralar haqida ma'lumot

25-mavzu. Inson va robot mavzusida munozara o'tkazish

Zamonaviy Yaponiyaning mavzu inson va robot haqida ma'lumot izlab, insho yozib, og'zaki suhbat qilish

26-mavzu. Intervyu prezentsasiysi yozish

Intervyu turlari, mashqlari, ishlataladigan joylari hagida ma'lumot

27-mavzu. Yapon tilida xat yozish qoidalari

Yapon tilida xat yozish usullari, biznes xat yozish usullari haqida ma'lumot

28-mavzu. Telefonda suhbatlashish qoidalari

Yapon kompaniyasida telefonda suhbatlashish qoidalari haqida ma'lumot

29-mavzu. Intervyu prezentasiyasi yozish

Yapon tilida intervyu prezentatsiya yozish usulari haqida ma'lumot

30-mavzu. BMI ni tog'ri tashkil qilish

BMI mavzular haqida ma'lumot berish

31-mavzu. BMI ning rezumesini yozish, slaydlar bilan ishlash

BMI ning qisqa shaklda rezumeni yozish usullari haqida ma'lumot berish

32-mavzu. BMI himoyasiga tayyorgarlik ko'rish

BMI himoyasiga kerak hujjatlarni tahlash haqida ma'lumot

O'quv faniga qo'yiladigan malaka talablari

Oliy ta'lim muassasalarini tinglovchilariga o'quv jarayoni davomida o'zlashtirishi belgilangan yapon tili quvidagi kompetensiyalar bo'yicha ko'rsatilgan talablar asosida o'qitilishi nazarda tutiladi:

Og'zaki nutqni rivojlantirish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar mavzulari:

Yapon tili fanidan o'g'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish uchun quvidagi mavzular tavsiya etiladi:

A1 Boshlang'ich daraja

1. 自己紹介	6. 日本とウズベキスタンの天気
2. 私の大学	7. 映画はどうでしたか
3. タシケントの紹介	8. おたんじょうびは いつですか
4. 私の一日	9. どうやって行きますか
5. 時間	10. いっしょに行きませんか

A2 Tayanch daraja

1. 部屋のそうじをしてから勉強します	7. このレストランの料理がおいしそうです
2. ここでタバコを吸わないでください	8. 明日は雨そうです
3. 旅行に行ったときお土産を買いました	9. わたしはアラビア語が話せます
4. 父はしゃをしています	10. ちょっと頭がいたいんです
5. 机の上に花が咲っています	11. 右にまがると学校があります
6. 将来、デザイナーになりたいです	12. 友達を招待する

B1 Boshlang'ich o'rta daraja

1. 本の内容を話す	7. ガイド
2. 電話をやくそくする	8. 変更
3. 日本料理を作る	9. 図を分析する
4. 日本の歴史的な町	10. 先生にお願いする
5. ウズベキスタンと日本比較	11. 友達にお願いする
6. 時間表現	12. フリートピックで発表する

B2 Yuqori o'rta daraja

1. データの分析	7. 弁論のテーマを決める
2. 図の分析	8. 弁論テーマを発表する
3. 日本料理を作る	9. ディベート
4. 研究テーマを発表する	10. 研究テーマ
5. ニュースを伝える	11. 背景説明
6. 時間表現	12. 研究の発表

C1 Yuqori daraja

1. 夏目礎石の作品	7. 記事のレジュメ
2. ぼっちゃんの分析	8. 電話で話すマナー
3. ぼっちゃんの映画の分析	9. ディベート
4. 本田	10. 研究テーマ
5. 吉本ばななの作品	11. 背景説明
6. NHKニュースを伝える	12. 研究の発表

3. Xorijiy sharq tili faniga qo'yiladigan malaka talablari

Kompetensiylar	Til ko'nikmalariga qo'yilgan talablar
A1 BOSHLANG'ICH DARAJA	
Tinglab tushunish	Sodda yo'riqnomalarini va gaplarni tushuna oladi va ularga amal qila oladi. Sodda savollar va gaplarni tushuna oladi. Sodda she'rlar, hikoyalar, qo'shiqlarni tushuna oladi. Tanish kontekstlarda sodda autentik nutqni tushuna oladi.
O'qish	Hiragana, katakana alifbolarini, sodda iyerogiflar ishtirokida qisqa matnlarni o'qiy oladi.
Yozuv	Shaxsiy sodda xabarlarni (tabriklar, qaydlar, elektron xatlar) yozsa oladi. Shaxsiy ma'lumotlar bilan sodda anketa to'ldira oladi. Sodda hikoyalar yozsa oladi.
Gapirish	Salomlashish va murojaat qilish, taklif, tavsiya qilish va taklifga javob berish, kechirim so'rashning sodda kundalik shakllarini ishlata oladi. Qisqa muloqotlarda muloqotni boshqarish vazifasini o'ziga olmasdan ishtirok eta olishi.
Grammatika	grammatikaning boshlang'ich darajasi: sodda gaplar tuzilishi, so'roq gaplar, olmoshlar, ko'rsatish olmoshi, vaqtga oid so'zlarni ishlata oladi.
A2 TAYANCH DARAJA	
Tinglab tushunish	Tinglab yoki o'qib eshitirilgan dialog, sodda matn yoki jumlalarni to'liq takrorlab ayta oladi, tarjima qila oladi va qisqa savollarga qisqa javob bera oladi. Darslik, audio-video material asosida berilgan kundalik hayotga oid mavzularni tinglab tushinadi, ma'lumotlarning asosiy qismini ajratma oladi, muhim ma'lumotlarni tushuna oladi.

O'qish	Matn tarkibidagi qisqa va cho'ziq bo'g'inlarni to'g'ri talaffuz qiladi. Darslik, audio-video material asosida taqdim etilgan sodda matnlarni diakritik belgilar yordamida ifodali o'qib bera oladi.
Yozuv	Avväl o'zlashtirilgan mavzularda kichik matn yoza oladi. Elektron xabarlarlarga qisqa va sodda so'z va iboralarni qo'llagan holda javob yoza oladi.
Gapirish	Qisqa muloqotda ishtirot eta oladi. Sodda iboralardan foydalaniib, tanish mavzuda o'z fikrini umumiy ifoda eta olish. Sodda yumushlarni amalgalash oshira olish, masalan, chiptalar sotib olish, xarid qilish, oshxona taom buyura olish (buyurtma berish), tushunmaganligini bildira olish.
Grammatika	Yapon tilida so'z turkumlaridan ot, sifat, son, olmosh, ravish va fe'lini o'zlashtiradi. ular asosida gaplar tuzadi. Sodda gaplarning bo'lislisi va bo'lissiz shakkllarini tuza oladi. Inkor shakldagi so'roq gaplar tuza oladi. O'zlashtirilgan leksik birliklarni kontekstda qo'llay oladi.
B1 BOSHLANG'ICH O'RTA DARAJA	
Tinglab tushunish	Darslik, o'quv qo'llanma, audio-video material asosida berilgan turli mavzulardagi matnlari (hikoya, maqollar, xabarlar, qissalar va h.k.)ni tinglab, tushunadi. Ularni ona tiliga lug'at yordamida tarjima qila oladi, material asosida berilgan barcha savollarga erkin javob bera oladi.
O'qish	Yapon tilidagi qissa, hikoya, sodda ommaviy axborot matnlarini, xat, elektron xat, qisqa rasmiy hujjatlarni qisman diaktiriktik belgilar yordamida o'qib, to'liq tushuna oladi.
Yozuv	Yapon tilida avval o'zlashtirgan grammatik va leksik bilimlarni qo'llagan holda 80-100 ta so'zdan iborat hikoyalar, esse yoza oladi. Sodda ish hujjatlari (xatlar va elektron xatlar, rejalar, rezume (shaxsiy ma'lumotnomasi) va h.z.)ni yoza oladi.
Gapirish	Yapon tilida o'zi haqida to'liq ma'lumot bera oladi, o'zi yashayotgan davlat, shahar va h.k.larni yapon tilida to'liq ta'riflab, uni tasvirlab, boshqa shaharlar bilan solishtira oladi. Bundan tashqari turli soha va turli vaziyatlarga oid mavzular (kasbga oid, ommaviy axborot, do'stlar orasida) da erkin so'zlay oladi, savol-javoblarda o'zining shaxsiy qarashlari va fikrlarini qiyinchiliksiz ifodalay oladi.
Grammatika	Yapon tilining avvalgi darajalarida o'zlashtirilgan grammatik materialni ommaviy va kasb-hunarga oid kontekslarda yetarli darajada to'g'ri qo'llay oladi. Kommunikativ maqsadlarda zarur bo'ladigan yapon tili grammatikasining barcha asosiy andozalaridan to'g'ri foydalana oladi.
B2 YUQORI O'RTA DARAJA	

Tinglab tushunish	Kundalik va ijtimoiy yo'nalishdagi mavzularni, adabiy til me'yorlari doirasidagi o'g'zaki nutq yoki audio-video matnlarni, shuningdek, tinglovchiga oldindan ma'lum yoki ma'lum bo'limgan mavzularni tushuna oladi. Til egasi bilan tanish va belgilangan mavzuda muloqotga kirishganda, uning aksariyat jihatlarini tushuna oladi.
O'qish	Yapon tilidagi katta hajmdagi matnlarni belgilangan vaqt ichida imlo qoidalari hamda punktuatsion talablarga rioxal qilgan holda, o'rgangan iyerogliflarni furiganasiz o'qiy oladi.
Yozuv	Rasmiy yoki norasmiy xatlar, ish yuritish hujjatlari, 100-150 ta so'zdan iborat matnlar, esse yoza oladi.
Gapirish	Yapon tilida tanish kundalik va boshqa umumiy mavzularda ma'lum darajada o'zida ishonch bilan ma'lumot almasha oladi, tekshira oladi va tasdiqlay oladi. Muammoni umumiy tarzda tushuntirib bera oladi. Kutilmagan muloqot vaziyatlarida ishtirot eta oladi: tayyorgarliksiz suhbat va muhokamalarni olib bora oladi. Dialog shaklida suhbat qura oladi.
Grammatika	Yapon tilining avvalgi darajalarida o'zlashtirilgan grammatik materialni turli oid kontekslarda to'g'ri ishlata oladi.
C1 YUQORI DARAJA	
Tinglab tushunish	Kundalik, ijtimoiy, siyosiy, ta'limiy va ilmiy yo'nalishdagi mavzularni, adabiy til me'yorlari va ayrim sheva doirasidagi o'g'zaki nutq yoki audio-video matnlarni, TV dasturlarni, OAVdagi chiqish va xabarlarni, shuningdek, tinglovchiga oldindan ma'lum yoki ma'lum bo'limgan mavzularni tushuna oladi. Til egasi bilan notanish mavzuda muloqotga kirishganda, uning to'liq jihatlarini tushuna oladi.
O'qish	Yapon tilidagi katta hajmdagi notanish matnlarni belgilangan vaqt ichida imlo qoidalari hamda punktuatsion talablarga rioxal qilgan holda diakritik belgilarsiz o'qiy oladi va tahlil qila bilish.
Yozuv	Rasmiy yoki norasmiy xatlar, ish yuritish hujjatlari, erkin mavzular bo'yicha 150-200 ta so'zdan iborat matnlar, esse yoza oladi.
Gapirish	Yapon tilida maishiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy va boshqa turli mavzularda erkin, ravon tarzda ma'lumot almasha oladi, tekshira oladi va o'z nuqtayi nazarini bildira oladi. Muammoni tushuntirib bera oladi va uni hal qilish yo'llarini taklif qila oladi. Til egalari bilan adabiy tilida va shevada kutilmagan muloqot vaziyatlarida ishtirot eta oladi: tayyorgarliksiz suhbat va muhokamalarni olib bora oladi. Savollar berib, tegishli sharhlar keltirib, intervyyu olib bora oladi.

Grammatika	Yapon tilining barcha darajalarida o'zlashtirilgan grammatic materialni har qanday kontekstlarda to'g'ri ishlatalish (fe'l zamoniari, sifat predloglar, sonlar, murakkab gaplar va hokazo).
-------------------	---

4. Mustaqil ta'lism*

4.1. Mustaqil ta'lism va mustaqil ishlar

Xorijiy sharq tili (yapon tili) fanidan mustaqil ishlar maqsadi – talabalarning kasbiy kommunikativ faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish, ularning ijodiy faoliyatini o'stirish va xorijiy sharq tili ustida mustaqil ishlay olish malaka va ko'nikmalarini hosil qilish va rivojlantirishdan iborat.

- Talabalarning til tayyorgarlik sifatini oshirib borish, til va mutaxassislik bo'yicha adapiyotlar ustida ishlay olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish.

- O'z kasbiy bilim va malakalarini keyinchalik mustaqil to'ldirib va yangilab borish ehtiyojlarini yaratish va saqlab qolish, xorijiy sharq tili bo'yicha yaratilgan malaka va ko'nikmalarini o'stirib, rivojlantirib borish;

- Ibrat farzandlari platformasidan mustaqil ta'lism doirasida samarali faoydalanish.

- Fanga doir videomahsulotlardan foyadlangan holda mustaqil ta'lismni olib borish.

- Talaba bajarishi kerak bo'lgan ishlarni to'g'ri tashkil qilish, kelib chiqadigan qiyinchiliklarni oldindan bila olish, his etish va ularni bartaraf qilish yo'llarini topa olish.

- Ibrat farzandlari platformasidan mustaqil ta'lism doirasida samarali faoydalanish.

Ushbu umumiy maqsadga erishish uchun xorijiy sharq tili fanidan quyidagi bir necha vazifalarni bajarish nazarda tutiladi, ya'ni mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash, esse va insholar yozish hamda taqdimotlar qilish tavsiya etiladi.

Mustaqil ish uchun tavsiya qilinadigan mavzular:

- 私の家族
- 私の趣味
- 私の一日
- 大学
- 日本とウズベキスタンの関係
- 歴史的な町
- 友達

8. ことわざの分析

9. (経済)の比較

10. 先生にお願いメールを書く

11. 先生に感謝のメールを書く

12. 友だちにお願いのメールを書く

13. 友達に感謝のメールを書く

14. 留学生の生活

15. 文化

16. 歴史

17. 日本作品

18. 熟語

19. 日本の大学とウズベキスタンの大学を比較する

20. フリートピック

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalaniши mumkin:

- darsliklar va o'quv qo'llanmalarning mavzu va boblarini o'rganib chiqish;
- tarqatma material asosida alohida ma'ruza mavzularini o'zlashtirish;
- iyeroglif yodlash;
- maxsus adapiyot asosida mavzular ustida ishlash;
- darajaga mos matnlar o'qib, yangi so'zlarni yodlash;
- NHK yangiliklarini kuzatib boorish;
- O'quv-ilmiy-tadqiqot faoliyat bilan bog'liq mavzularni chuqur o'rganish;
- Ta'lim olishning faol va muammoli usullari qo'llangan o'quv mashqlarni bajarish;
- Taqdim etilayotgan mavzu bo'yicha referat, esse, maqolalar tayyorlash;
- Mavzu bo'yicha slayd-prezentatsiyani tayyorlash;
- Ilmiy ma'ruza tayyorlash va taqdimoti;

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

4.2. "Xorijiy sharq tili" fanidan kurs ishlarining namunaviy mavzulari:

- てもいい、てもかまわない、ても差し支えない Kabi ruxsat berish iboralarining morfologik va sintaktik qo'llanilishi
- ばかりでなく、ばかりだ、ばかりに、ばかりか iboralarining morfologik va sintaktik qo'llanilishi
- Erkak va ayol nutqining stilistik tahlili
- “の” va “こと” qo'shimchasi orqali hosil bo'ladigan substansivasiyaning ma'nosи va qo'llanilishi

5. Elektron xatda qo'llaniluvchi iboralarning lingvokulturologik tahlili
6. Yapon tilini o'zlashtirish va o'qitish tadqiqoti
7. Tarkibida son komponenti bo'lgan frazeologik birliklarning semantik tadqiqoti (yapon va o'zbek tillari misolida)
8. Stilistik vositalarning grammatik tarkibi asosida tahlili
9. Ravishlar tahlili
10. Manga asarlaridagi harakatni ifodalovchi modal ravishlar ゼひ/できれば/なるべく/できるだけ
11. Insonni tavsiflovchi zoonimlarning gender xususiyatlari (yapon tili misolida)
12. Yapon va o'zbek tilaridagi maqol va matali iboralarning milliy-madaniy xususiyatlari
13. Insonning qadriyatlarini ifodalovchi til birliklarining kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari
14. Yapon tilini o'qitish metodlari
15. Yapon reklamalarida o'zlashgan so'zlarning qo'llanilishi
16. Yapon tilida modalik kategoriyasining semantik xususiyatlari
17. Yapon tilida topishmoqlarning semantik funksional tahlili
18. Yapon tilida murojaat birliklarining lingvopragmatik tahlili (kishilik olmoshlari misolida)
19. Yapon va o'zbek tilarida ko'rsatish olmoshlarining makon va shaxsga nisbatan qo'llanilishidagi o'ziga xosliklar
20. Yapon tilida iyeroglypharni o'rganishdagi qiyinchililar

* Izoh: Mustaqil ta'lif va kurs ishi mavzulari fan doirasida o'zgarishi mumkin.

Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

"Xorijiy sharq tili" fanidan kurs ishi muayyan mavzu bo'yicha umumiyyat yaxlitlikka ega, ilmiy-amaliy fikrlarni aks ettiruvchi loyihibiy ishi hisoblanadi. Kurs ishi faoliyati rivojlanishi darajasiga doir masalalarini aks ettirishga mos kelishi talab etiladi. Kurs ishi mavzuning dolzarbligi va erishilgan natijalarning amaliyotga tatbiqi, uning uslubiy darajasi hamda rasmiylashtirilishiga qarab baholanadi. Kurs ishini bajarishning muhim bosqichi rejada belgilangan savollar yoritilishida o'zaro nazariy va amaliy aloqadorlikni ta'minlashdir. Kurs ishining tarkibiy tuzilishini to'g'ri shakllantirish, talabaga uning maqsadi va vazifalarini aniq belgilab olish hamda ko'zlangan natijaga erishish yo'llarini, shuningdek, kurs ishini tayyorlash bosqichlarini ketma-ket bajarishga imkon yaratadi. Kurs ishining tarkibiy tuzilishini to'g'ri ishlab chiqilishi talabaga izlanishning oldiga qo'yilgan maqsad hamda natijalarini aniq ifodalash, fikrlarini mantiqiy bayon etish uslublari va kurs ishini tayyorlash bosqichlarini ajratish imkonini beradi.

Kurs ishi talabaning salohiyati hamda fan bo'yicha chuqur bilim va amaliy ko'nikmaga egaligini namoyon qiladi. Kurs ishida o'rganiladigan masalalarning nazariy jihatlari, aniqlangan muammolarini, qo'yilgan vazifalarini tahlil qilish hamda muammolarini hal etishni ko'zlagan holda reja tuziladi va shu reja asosida bajariladi. Talaba kurs ishi bo'yicha izlanish natijalarini yoritishda

auditni tashkil qilishning o'ziga xosligi, xorijiy davlatlarning tajribalari va orttirgan amaliy yutuqlarini umumlashtirgan holda belgilangan muammolarining yechimi yuzasidan yo'l- yo'riqlarni ishlab chiqadi va ularni bartaraf etish yo'llarini tavsiya etadi.

Kurs ishini himoya qilishga quyidagi umumiyyat talablar qo'yiladi:

- to'plangan materialarni tanqidiy o'rganish;
- taklif va tavsiyalarni asoslab berish;
- fikrni ketma-ketlikda, muayyan izchillikda bayon qilish;
- kurs ishini qo'yilgan talablar bo'yicha rasmiylashtirish.

5. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

"Xorijiy sharq tili" fanini o'zlashtirish natijasida talaba:

- sharq tilining morfologik tuzilishi va tovush tizimini;
- sharq tilidan o'qitish olib borilayotgan tilga tarjima qilish amaliyoti spetsifikasi va stilistik xususiyatlari, me'yoriy grammatika asoslarini;
- sharq tilning rivoji va til doirasidagi ekstralengvistik shakllanishning asosiy omillari hamda tarixiy manbalari, uning dialektik xilma-xillagini;
- qiyosiy-tarixiy tilshunoslik sohasidagi munozaralari masalalarni;
- yozma adabiy til tarixi, yozma yodgorliklar tili haqida **tasavvurga ega bo'lishi**;
- sharq tilining yozma, adabiy va og'zaki shakllarini;
- tilning ilmiy tavsifi, yozuv, grafik xususiyatlari, orfografiyasi, punktuatsiyasi, leksik-grammatik xususiyatlari, so'z yasalishi va uning tuzilishi, boshqa tillardan so'z o'zlashtirish qonuniyatlarini;
- sodda va qo'shma gaplar, so'z birikmalari, leksika va yozma nutq, dialektik leksikaning asosiy xususiyatlari;
- matn tili, yozuv xususiyatlari, imlo va punktuasion xususiyatlari, leksik-grammatik xususiyatlari, so'z yasalishi va uning tuzilishi, boshqa tillardan so'z o'zlashtirish qonuniyatlarini;
- ilmiy atamalar tizimi, lingvistika va adabiyotshunoslikka tegishli tushunchalarni **bilishi va ulardan foydalana olishi**;

Bular bilan bir qatorda bakalavr:

- sharq tilidagi adabiy matnlarni o'qitish olib borilayotgan tilga tarjima qila olishi;
- sharq tilida chet ellik mutaxassislar bilan muayyan sohada va umumiyyat masalalarda to'laqonli jonli muloqot olib borish **ko'nikmasiga ega bo'lishi**;
- har turli va murakkab matnlarni o'qitish olib borilayotgan tildan asosiy sharq tilining hozirgi adabiy shakliga yozma tarjima qila olish;
- sharq tilida muloqot qilish, nutq so'zlash;
- sharq tilidan o'qitish olib borilayotgan tilga suhbat, nutq va ma'ruzalarni og'zaki izchil va sinxron tarjima qila olish;

- sharq tili va o'qitish olib borilayotgan tildagi ma'lumotlarni qo'llab, annotatsiya, referat, ma'lumotlar toplash, tuzish **malakalariga ega bo'lishi kerak.**

C1 yuqori daraja talabasi quyidagi lингвистик kompetensiyalarga javob berish kerak:

• **tinglab tushunish:**

- talabalar kundalik, ijtimoiy, ta'limiy yo'nalishidagi mavzularni, adabiy til me'yordi doirasidagi og'zaki nutq yoki diskrlarga yozilgan shakldagi matnlarni, shuningdek, o'quvchiga oldindan ma'lum yoki ma'lum bo'lmagan mavzularni tarkibida idiomatik birliliklar bo'lishiga qaramasdan tushuna olishi;
- sharq tilida so'zlashuvchi kishilarning fikrlarini bermalol, erkin tushunishlari;
- ommaviy axborot vositalari orqali namoyish etiladigan yoki eshittiriladigan yangiliklar, joriy voqe va hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarning asosiy qismini tushuna oishlari;
- hujjatl filmlar, jonli muloqot, tok-shou, spektakllar va badiiy film qahramonlari adabiy me'yorda so'zlashayotgan bo'lsalar, ularning ma'nolarini tushuna oishlari kerak.

• **gapisht:**

dialog:

- turli xil mavzularda tayyorgarliksiz, tez va grammatick xatolarga yo'l qo'ymasdan, vaziyat taqozosiga ko'ra gapira oishlari;
- bermalol va erkin ravishda oldindan belgilab berilgan savollardan chetga chiqib, kerakli o'rinnlarda fikr ayтиб, suhbat qura olishi;
- kasbiy-kommunikativ holatlarga asoslangan, ma'lum bosqichiga mo'ljallangan erkin va me'yoriy dialoglarda qatnashishi kerak.

monolog:

- mutaxassisligi bo'yicha aniq, tez va batapsil axborot berishni, tafsiflashni, aniq va mantiqiy ketma-ketlikda tuzilgan tafsilotlari bilan, eshituvchilarga tushunarli bo'ladigan darajadagi ma'ruza qila olish salohiyatiga ega bo'lishi;
- kasbiy yo'nalish bo'yicha barcha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan har qanday monologni tuza olishi;
- tayyorgarliksiz ma'ruza mavzusiga oid bo'lmagan masalalarda fikr-mulohazalar bildirgan tinglovchilarning fikrlarini rivojlantira olishi hamda o'z fikrlarini oson va qulay shaklda ifoda eta olishini namoyish qilishi kerak.

• **o'qish:**

- murakkab bo'lgan matnni ko'zdan kechirib, undagi o'ziga kerakli muhim ma'lumotlarni ajrata bilishi;
- turli janrlardagi kasbga oid matnlarni tushunish (ilmiy maqolalar, zamonaviy muammolar bo'yicha ma'lumotlar) va muayyan o'qish bosqichiga asoslangan nutq ko'nikmalariga mos bo'lgan matnlarni o'rganish hamda zamonaviy badiiy nasrni tushunishi kerak.

• **yozish:**

- kasbga oid bo'lgan manbalarni eshitib, annotatsiyalar yozish;
- elektron va rasmiy xatlar, ma'ruzalar, tezislar yoki turli referatlar yozish hamda mutaxassislik bo'yicha asosiy ish hujjatlarni tuza olishi kerak. Yuqoridagilardan tashqari bakalavr quyidagi til bilimlari malakasiga ega bo'lishi kerak:

- nutqning fonetik jihatlari - talaffuz ko'nikmasi va malakasini egallashi va rivojlantirishi;
- ma'lum o'quv bosqichidagi turli kommunikativ holatlarni bayon eta olishi;
- nutqning leksik jihatlari - ma'lum o'quv bosqichida turli muloqot uchastkasi doirasidagi kasbga yo'naltirilgan kommunikativ so'z qatlamini o'zlashtirishi;
- nutqning grammatik jihatlari - ma'lum o'quv bosqichiga asoslangan turli kommunikativ holatlar doirasidagi mavzuga oid konstruksiyalar va bir-biriga bog'liq xususiyatlarini egallashi lozim.

6. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- rolli o'yinlar(mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishslash;
- taqdimotlarni tayyorlash;
- individual loyihibar;
- jamoa bo'lib ishslash va himoya qilish uchun loyihibar va hokazolar.

II.7. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganiyotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

II.8. Adabiyotlar va resurslar

Asosiy adabiyotlar:

1. Shamsiyeva B. Yapon tili (Boshlang'ich daraja) / Darslik. – Toshkent, 2024. (1 kurslar uchun A1-A2)
2. Матчанов Е., Гулямов И. Япон тили-1. (ўкув кўлланма) – Тошкент, 2013. (1-kurslar uchun A1-A2)
3. Sugano R., Xalmurzayeva N. Yapon tili -1. (darslik) – Toshkent, 2013. (2-kurslar uchun B1)
4. Сугано Р., Халмурзаева Н. Япон тили -2. (ўкув кўлланма) – Тошкент, 2013. (2-kurslar uchun B1-B2)
5. Сугано Р. Япон тили - 3. (darslik) - Toshkent, 2013. (3-kurslar uchun B2)
6. Халмурзаева Н. Япон тили - 4. (darslik) – Toshkent, 2013. (4-kurslar uchun B2-C1)
7. Abduxamidova D. Yapon tili (ommaviy axborot vositalari tili xususiyatlari)

(o'quv qo'llanma). – Toshkent, 2021. (A2-B2)

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi 7-tom. – Toshkent, 2023.
2. Mirziyoyev Sh. Erkin, obod va farovon mamlakatni – yangi O'zbekistonni barchamiz birgalikda barpo etamiz. – Toshkent, 2023.
3. Yamamoto Sh. Shin Bunka Shinkyuu Nihongo I Nihon Keizai Shinbunsha 2000.
4. Yamamoto Sh. Shin Bunka Shinkyuu Nihongo I Nihon Keizai Shinbunsha 2000.
5. Chieko K. Basic Kanji Book -Basic Kanji 500- Vol.1 (Japanese Edition) BONJINSHA, 2015.
6. Chieko K. Basic Kanji Book -Basic Kanji 500- Vol.2 (Japanese Edition) BONJINSHA, 2015.
7. Kanji in context (Japanese Edition) The Japan Times, 2014.
8. Kanji in context Work book (Japanese Edition) The Japan Times, 2014.
9. Tomioka S. Japanese Topical Composition from Speaking to Writing. Semmon Kyouiku, 1993.
10. Inuda K. Mainichi kikitori 50 nichi Vol.1 BONJINSHA, 2010.
11. Inuda K. Mainichi kikitori 50 nichi Vol.2 BONJINSHA, 2010.
12. Hitomi T. Shin Kanzen Master Reading N3. Network, 2014.
13. Matsumoto K. Nihongo Soumatome N3 Reading ASK, 2015.
14. Matsumoto K. Nihongo Soumatome N2 Reading ASK, 2015.
15. Matsumoto K. Nihongo Soumatome N1 Grammar ASK, 2010.
16. Tomomatsu S. Donna toki, dou tsukau nihongo hyougen bunkei, 2012.
18. Journal of Japanese linguistics// volume 40, issue 1, San Francisco State University, USA, 2024. <https://discovery.researcher.life/article/asahi-yoshivuki-mayumi-usami-and-fumio-inoue-handbook-of-japanese-sociolinguistics/bf51ee4eb4d53ea1884d99630f8e2287> (scopus)
19. Von Heusinger, K., Schumacher, P.B., Discourse prominence: Definition and application, Journal of Pragmatics, <https://doi.org/10.1016/j.pragma.2019.07.025> (scopus)

Axborot manbalar:

1. www.gov.uz- Ўзбекистон Республикаси хукумат портали.
2. www.lex.uz- Ўзбекистон Республикаси Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси.
3. [https://ibratfarzandlari.uz](http://ibratfarzandlari.uz)
4. www.mt.tsuos.uz
5. www.ziyonet.uz
6. www.nihongo-arekore.com
7. www3.nhk.or.jp
8. <https://www.sciencedirect.com/search?qs=japanese%20language>

9. <https://langoal.com/minnano-nihongo-teaching-plan/overview.html>
10. <https://nihongokyoshi-net.com/minnano-nihongo-lessonplans>
11. <https://www.waseda.jp/inst/cjl/about/education/curriculum/>
12. <https://www.waseda.jp/inst/cjl/en/about/education/curriculum/>
13. <https://www.cegloc.tsukuba.ac.jp/page/dir000674.html>
14. <https://www.cegloc.tsukuba.ac.jp/page/page000350.html>

Fan dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (20²⁴ yil “ОТ ОТ даги “И” – sonli bayonnomasi).

Fan dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Yapon filologiyasi” kafedrasida ishlab chiqildi.

Fan/modul uchun ma'sullar:

- N.T.Xalmurzayeva – TDShU, “Yapon filologiyasi” kafedrasi mudiri, PhD, dotsent.
- B..Shamsiyeva – TDShU, “Yapon filologiyasi” kafedrasi dotsenti, PhD.
- L.Fatkulina – TDShU, “Yapon filologiyasi” kafedrasi katta o'qituvchisi
- N.A.Turapova – TDShU, “Yapon filologiyasi” kafedrasi katta o'qituvchisi PhD.
- D.A. Abduxamidova – TDShU, “Yapon filologiyasi” kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD.
- M.A.Temirova – TDShU, “Yapon filologiyasi” kafedrasi o'qituvchisi
- S.G'.Axmedova – TDShU, “Yapon filologiyasi” kafedrasi o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

- S.A.Nasirova – TDShU huzuridagi Konfutsiy nomidagi o'zbek-xitoy Instituti direktori, f.f.d., dotsent

X.Sh.Gafurova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, PhD, dotsent